Ona tili

IV qism

3

novda
edutainment

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

D.D.Baynazarova
M.E.Toirova

Ona tili

3-sinf
IV qism

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

Ta'limni rivojlantirish markazi huzuridagi ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan

TASDIQLANGAN
PLAGIATGA QARSHI
TASDIQLANGAN

novda
edutainment
Toshkent – 2023

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FARG'ONA VILOYATI
RISHTON TUMANI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI BO'LIMI
33-UMUMIY
O'RTA TA'LIM
MAKTABI
№_____
___.___.20___y.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO'K: 811.512.133(075.3)
KBK 81.2O'zb-922
T-60

Baynazarova D. D.
Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. IV qism. / Baynazarova D. D., Toirova M.E. – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. – 96 b.

Taqrizchilar:

Sh. Y. Muslimova – Toshkent shahridagi 328-umumiy o'rta ta'lim maktabning oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;
M. M. Umarova – Toshkent shahridagi 222-umumiy o'rta ta'lim maktabning birinchi toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

ISBN 978-9943-9715-7-8

© D.D.Baynazarova, M.E.Toirova
© "Novda Edutainment", 2023

Shartli belgilar:

Og‘zaki bajaring

Savollarga javob bering

Topshiriqni bajaring

Yodda tuting

O‘ylab ko‘ring

Uyga vazifa

Yozma bajaring

Guruh bo‘lib ishlang

Aziz o‘quvchilar!

Ona tiliga mehr Vatanga muhabbat kabi pok tuyg‘udir.

Bu kitob ko‘zlari chaqnoq, ilmga tashna Sizdek bolajonlarning nutq va lug‘at boyligini o‘stirishga, imloviy savodxonlik, to‘g‘ri yozish, o‘qish hamda husnixat ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Darslikda grammatika qoidalarini oson o‘zlashtirishingiz, grammatik tahlilni sodda, aniq yo‘llar bilan amalga oshirishingiz va ijodiy fikrlashni o‘rganishingiz uchun turli jadval, rebus, boshqotirma, diktant va test topshiriqlari berilgan.

Omad yor bo‘lsin!

Ona
tili

3-chorakda o'tilganlarni takrorlash

1-mashq. Quyidagi jadvalda berilgan tushunchalarning to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlang. Noto'g'ri javoblarni to'g'risi bilan almashtirib, daftaringizga yozing.

T/r	Tushunchalar	To'g'ri	Noto'g'ri
1.	Shaxs va narsalar nomi (kishilarning ismi, familiyasi, kasbi, hayvonlarning nomi, narsa-buyumlarning nomi, tabiat hodisalari, o'rin-joy va hududlarning nomlari)ni bildirib, **Kim? Qancha? Qanaqa? Qanday?** so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar ot deyiladi.		
2.	Shaxs-narsa belgisini bildirgan so'z ot deyiladi. Otlar **Qanday?** yoki **Qanaqa?** so'rog'iga javob bo'ladi. Otlar gapda sifatga bog'lanib keladi: ***zangori gilam, yashil bog'lar, yorug' yulduzlar.***		
3.	Shaxslarni bildiruvchi otlar: ***soatsoz, to'quvchi, duradgor, kutubxonachi.***		
4.	**-li, -dor** qo'shimchalari yordamida hosil qilingan sifatlar belgiga egalik ma'nosini, **-siz** qo'shimchasi yordamida yasalgan sifatlar belgiga ega emaslik ma'nosini bildiradi.		

5.	Kishilarning kasbini bildiruvchi otlar: ***o'qituvchi, shifokor, rassom, arxitektor.***		

2-mashq. Birinchi ustundagi so'zlarga *-la*, ikkinchi ustundagi so'zlarga *-chi*, uchinchi ustundagi so'zlarga *-li* qo'shimchalarini qo'shib, yangi so'zlar hosil qiling. Ularning qanday so'roqlarga javob bo'lishini, qaysi so'z turkumiga oidligini ayting.

pardoz – pardoz**la**	sport – sport**chi**	suv – suv**li**
ixcham – ...	sut – ...	nur – ...
mahkam – ...	hashar – ...	ishonch – ...
erka – ...	bo'yoq – ...	intizom – ...
yaxshi – ...	holva – ...	odob – ...
mayda – ...	kashta – ...	xavf – ...
tekis – ...	tennis – ...	kuch – ...

So'zlarni mos ustunga joylashtiring.

Namuna:

sifat ⟶ fe'l	ot ⟶ ot	ot ⟶ sifat
pardoz – pardoz**la**	sport – sport**chi**	suv – suv**li**
ixcham – ixcham**la**	sut – sut**chi**	nur – nur**li**

Hosil qilingan so'zlardagi asos va so'z yasovchi qo'shimchalarni tegishlicha beigilang.

3-mashq. So'z turkumlari haqidagi topishmoqlarni o'qing. Daftaringizga 1 dan 4 gacha bo'lgan raqamlarni yozing. O'qituvchingiz o'qigan topishmoq javobini uning tartib raqami yoniga yozib qo'ying.

1

So'rog'idir Kim? Nima?
Kitob, daftar, gul, olma.
Shaxs va narsaning nomi,
Bu qaysi so'z turkumi?

2

Bildiradi belgini,
Maza-ta'm, rang-tus, hidni.
Mustahkamlar sezgini,
Bu qaysi so'z turkumi?

3

Son-sanoqni bildirar,
Hisob-kitob qildirar.
So'rog'i Nechta? Qancha?
Sanayver xohlagancha.

4

Harakatni bildirar,
Tinmay mehnat qildirar.
So'rog'i Nima qildi?
Buni ayting, kim bildi?

Topishmoqlarning javobini topishda sizga qaysi so'zlar yordam berdi?

4-mashq. "Mening uyim qayerda?" ta'limiy o'yini. Jadvalni daftaringizga chizing. Berilgan so'zlarni mos katakka yozing.

Kim? Nima?	Qanday? Qanaqa?	Nima qildi? Nima qiladi?

Foydalanish uchun so'zlar: *taxta, yozmadi, qadrli, baxtli, yig'ladi, qadrlaydi, fikrsiz, bemaza, bebaho, suvsiz, mazali, o'tirdi, kursdosh, bormadi, rivojlandi.*

Son haqida ma'lumot

5-mashq. Maqollarni o'qing. Ma'nosini izohlab, sonlarga so'roq bering. Daftaringizga ko'chirib, tagiga tegishlicha chizing.

Og'iz bir, quloq ikki.

Yetti o'lchab, bir kes.

Yigit kishiga qirq hunar ham oz.

Bir tulki to'rtta bo'rini yetaklar.

Birdan ikki yaxshi, Ikkidan uch yaxshi.

Shaxs va narsaning sanog'ini bildirgan so'zlar **son** deyiladi. Sonlar ***Nechta? Qancha?*** so'roqlariga javob bo'ladi.
Nechta (daftar)? – *O'nta daftar.*
Qancha (suv)? – *Bir piyola suv.*

6-mashq. Chizmaga mos gaplar tuzing va ularni daftaringizga yozing.

7-mashq. **"Kim birinchi?" ta'limiy o'yini. Ko'rsatilgan sonlar ishtirokida so'z birikmalari hosil qiling. Berilgan sonlarni raqamlar bilan yozib, ular ishtirokida to'rtta gap tuzing.**

8-mashq. **Son va sifat so'z turkumini Venn diagrammasi orqali taqqoslang.**



Son

9-mashq. "O'qish savodxonligi" darsligida berilgan "Bir butun oy, o'n ikki yulduz" she'ridagi son so'z turkumiga oid so'zlarni o'zi bog'langan so'zlar bilan birga ko'chiring.

She'r sizda qanday taassurot qoldirdi? She'r tahlilini bajaring.

1. She'r muallifini yozing.
2. She'rda jami nechta misra bor?
3. She'rni ko'chiring. Bosh bo'laklarning tagiga tegishlicha chizing.
4. She'rdagi qofiyadosh so'zlarni yozing.

10-mashq. Soat rasmini daftaringizga chizing. Soat millarini vaqtga qarab belgilang va uiar asosida qisqa matn tuzing.

07:30

15:30

09:00

12:00

11-mashq. Rebusni yeching. Maqolni izohlang.

12-mashq. To‘rtlikni yoddan yozing. Sonlarning tagiga chizing.

Uchta echki, to‘rtta qo‘y,
Qani, Erkin, sanab ko‘r.
Nechta quloq, nechta shox
Bor ekan-a, aytib boq.

Obloqul Normatov

13-mashq. Maqollarni o'qing. Ma'nosini izohlab, sonlarning tagiga chizing. Shu kabi maqollardan bilasizmi? Misollar keltiring.

Birni kessang, o'nni ek.

Sanamay sakkiz dema.

Bir kishi maydonda jangchi emas.

Yigit kishiga yetmish hunar oz.

Uch kishi bilgan sirni yuz kishi bilar.

Oyning beshidan qo'rqma, boshidan qo'rq.

14-mashq. "Uch haqiqat, bir yolg'on" taqdimoti. Son so'z turkumi qatnashmagan maqolni toping va taqdimot qiling.

1-guruh:

1. Ishi borga bir kun hayit, Ishi yo'qqa ming kun hayit.
2. Yetti o'lchab, bir kes.
3. Mehnat, mehnatning tagi rohat.
4. Ikki qo'l qilgan ishni bir qo'l qila olmas.

2-guruh:

1. Bir qo'llab eksang, ikki qo'llab terarsan.
2. Bir yil tut ekkan kishi yuz yil gavhar teradi.
3. Vataning tinch – sen tinch.
4. Sanamay, sakkiz dema.

15-mashq. Sonli rebuslarni yeching va ularni husnixat bilan yozing.

16-mashq. Sonlarni qo'shib o'qish orqali so'z ma'nosini chiqaring. Sanoqni bildirgan so'zlar tagiga bir chiziq chizing.

1. **1** bor ekan, **1** yo'q ekan. Qadim o'tgan zamonda **3** og'ayni botirlar yashagan ekan. **2.** Mubina matematikadan **6** ta masala yechdi. **3.** Bahodir **4**-sinfda o'qiydi. **4.** Bugun haftaning **7**-kuni.

Sonlarning turlari

17-mashq. Tushirib qoldirilgan sonlarni qo'yib, she'rni yoddan yozing.

Ayam ...ga kirsinlar,
Dadam ...ga kirsinlar.
Bizlar ...ga kirganda,
Yonimizda yursinlar.

Sonlar narsalarning joylashish tartibini ham bildirib, Nechanchi? so'rog'iga javob bo'ladi: Nechanchi (xona)? – Yettinchi xona. Nechanchi (qavat)? – To'qqizinchi qavat. *To'rtinchi, to'qqizinchi* sonlari **tartib sonlardir.**

Sanoq sonlarga ***-inchi, (-nchi)*** qo'shimchalarini qo'shish bilan tartib son hosil qilinadi:

yetmish + inchi – yetmishinchi, yetti + nchi – yettinchi, ikki + nchi – ikkinchi, yuz + inchi – yuzinchi.

18-mashq. Quvnoq sonlardan foydalanib, tartib sonlarga mos gaplar tuzing.

19-mashq. Testlarni yeching va javoblarini yozing.

1. **Alifboda nechta harf bor?**

   A) 30 ta B) 29 ta D) 28 ta E) 31 ta

2. **Alifboda nechta unli harf bor?**

   A) 6 ta B) 24 ta D) 23 ta E) 10 ta

3. **Shaxs va narsaning sanog'ini bildirgan so'zlar ... , ... so'roqlariga javob bo'ladi.**

   A) Nechta? Nechanchi? Qancha?
   B) Kim? Qancha?
   D) Nechta? Kim?
   E) Qanday? Qanaqa?

4. Shaxs va narsaning tartibini bildirgan so'zlar ... so'roqlariga javob bo'ladi.

A) Nechta? Qancha?
B) Nechanchi? Qancha?
D) Nechta? Kim?
E) Nechanchi?

20-mashq. Harfiy ifodada berilgan sonlarni raqamlarga aylantirib ko'chiring.

Ahmadjon uch yuz ikkinchi maktabning to'rtinchi sinfida o'qiydi. U – yigirma birinchi asrning kreativ fikrlovchi iqtidorli bolasi. Ahmadjon yigirmaga yaqin ensiklopediya kitoblarini o'qib chiqqan. U ixtiro qilishga qiziqadi.

Siz-chi? Ahmadjon kabi ixtirolarga qiziqasizmi? Nimalar yaratishni orzu qilasiz? Fikringizni yozma bayon qiling.

Ijodkorlik soati. Loyiha ishi

21-mashq. Quyosh rasmini chizib, nurlariga do'stlaringizning ismlarini yozing.

Namuna:

1. Do'stlaringizning qaysi xislatlari sizga yoqadi?
2. Nima uchun aynan shu inson bilan do'st tutingansiz?
3. Fikringizni yozma bayon eting.
4. Chin do'st bo'lish uchun o'zingiz qanday inson bo'lishingiz muhimligini yozing.

Rim raqamlaridan keyin chiziqcha qo'yilmaydi.

22-mashq. **Sonlarda ifodalangan hayvonlarni toping. Ular nimalar bilan oziqlanadi? Ushbu hayvonlarni himoya qilish to'g'risida qisqa matn tuzing. Tuzgan hikoyangizga sarlavha toping.**

23-mashq. Yozing. Ushbu raqamlar qaysi sanani ifodalayapti?

XXI. IX. XXI

a) 2021-yil 21-sentabr
b) 2011-yil 21-dekabr
d) 2001-yil 21-noyabr

24-mashq. So'zlarning oxirgi harfini almashtiring va hosil bo'lgan yangi so'zlarni yozing. Ushbu so'zlar yordamida, sonlar ishtirokida so'z birikmalari tuzing.

Namuna: *Bir bosh uzum, ikkita quyon.*

ODAM – ODA...
UZUM – UZU...
TUZUM – TUZU...

QO'L – QO'...
BOL – BO...
TOSH – TO...

QUYON – QUYO...
QAYIN – QAYI...
KO'Z – KO'...

Sonlarning imlosi

25-mashq. O'qing. Matnda berilgan sonlarni harfiy ifodaga aylantirib, matnni ko'chiring.

Osmondan tushgan sirli xat

Dunyo aholisining teng yarmi haqiqiy qorni hali biror marta ham ko'rmagan. Qorning diametri 5 millimetrgacha, og'irligi esa 4 milligrammgacha bo'ladi. Olimlar 1 metr joyda 350 ming donagacha qor parchasi borligini aniqlashdi. 2 ta bir xil qor parchasi mavjud emas. Qorning 95 foizi havodan iborat.

Qor ajoyib mo'jiza, shunday emasmi? Xalqaro qor kuni ham bor bo'lib, 19-yanvarda ba'zi o'lkalarda bu kun bayram sifatida nishonlanadi. Floridada qorning balandligi 6 metrni tashkil etadigan yo'l bor. Yapon olimi Nakaya Unitiro qor parchalarini "xuddi osmondan yozilgan sirli iyerogliflar", deb ta'riflagan.

("Vunderkind" jurnalidan)

Sonlar yozuvda uch xil ifodalanadi:

Harfiy ifoda bilan:

to'rtinchi qavat, oltinchi uy.

Arab raqamlari bilan:

2003-yil 1-sentabr.

Rim raqamlari bilan:

VI sinf, XXI asr.

Sonlar sifatlar kabi otlardan oldin kelib, ohang yordamida otga bog'lanadi va sonlar ko'rinishidagi so'z birikmalarini hosil qiladi. Gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasini bajaradi.

26-mashq. O'qing.
Nuqtalar o'rniga sanoq sonlardan mosini qo'yib, maqollarni ko'chiring.

1. Ilmsiz ... yashar, ilmli ... yashar.
2. ...ni sochsang yerga, ...ni berar elga.
3. ... yigitga ... hunar oz.
4. O'rganish ... hunar, o'rgatish ... hunar.

27-mashq. Berilgan Rim raqamlaridan iborat misolni yeching va javobini harfiy ifodada yozing.

CMXCIX – DXIX+CXLIV=?

a) LCXXVI
b) DCXXIV
d) LCXXIL

28-mashq. She'rda sonning qaysi turi ishtirok etgan?
She'rni husnixat bilan ko'chiring.

– Doskaga chiq, Mukambar,
Bo'rni ol-chi, xo'sh, qani?
Bitta misol ishlaymiz,
Uchga uchni qo'sh, qani?
Lekin oddiy misolni
Yecholmadi Mukambar.
Sodiq aka so'rab qoldi:
– Ayt-chi, qancha ukang bor?
– Oltita.
– Ular birdan konfet yesa,
Bo'lar nechta?
– Beshta.
– Hech-da?!
Shoshilmasdan o'yla boshda.
– Bitta ukam konfet yemas,
Hali yosh-da...

Tursunboy Adashboyev

29-mashq. "Topag'on" ta'limiy o'yini.
Shaxs va narsaning sanog'ini bildirgan so'zlardan toping. So'zlarga so'roq bering. Qaysi so'roqqa javob bo'lsa, shu savol tagiga yozing.

Namuna:

T/r	Nechta?	Nechanchi?
1.	Bir tup	Yigirma ikkinchi iyun
2.	...	To'qqizinchi may
3.	...	...

30-mashq. Rasmda jami nechta shaklni ko'ryapsiz? Uchburchaklar sonini yozing.
To'rtburchaklar nechta? Topgan sonlaringizni harfiy ifoda bilan yozib, ularga so'roq bering.



Tasavvur qiling, siz me'morsiz. Qanday uylar loyihasini chizishni xohlaysiz? Loyihangizdagi uylar qanday shakllardan iborat bo'lishi mumkin?

31-mashq. O'qing. Narsalarning sanog'ini, tartibini bildirgan sonlarni aniqlab, ikki qatorga namunadagidek yozing.

O'n ikkita rangli qalam, o'ninchi bino, qirq kun, ikkinchi hosil, ming bir kecha, to'rtinchi yil, sakkiz qator, ellik beshinchi sahifa, yetmish yil, yuzta bahona.

Namuna: *Sanoq sonlar – uch kishi, ...*
Tartib sonlar – ikkinchi kun, ...

32-mashq. O'qing. Sonlar qaysi otlar bilan bog'lanib kelganini aniqlang va ularni yonma-yon yozing.

1. Bir mayizni qirq kishi bo'lib yer.
2. Birniki mingga, mingniki tumanga.
3. Bir kattaning gapiga kir, bir kichikning.
4. Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r mingni.
5. Bir kishi ariq qazir, ming kishi suv ichar.

Mustahkamlash

33-mashq. Topishmoqdagi sonlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga yozing.

Bir qushim bor ikki qanotli,
Bir qanoti oq, ikkinchi qanoti qora.

Bir nafasda olam kezar.

Bir otasi, bir onasi,
Necha yuz ming bolasi.

Pastakkina bo‘yi bor,
Yetti qavat to‘ni bor.

34-mashq. “O‘qish savodxonligi” darsligingizdan 4 ta harfiy ifodaga va 4 ta Rim raqamlariga tegishli so‘z topib yozing. Shu so‘zlarni qatnashtirib, gaplar tuzing.

35-mashq. Maqollarning ikkinchi qismini toping va ko'chiring.

Ikki qo'l qilgan ishni	Yuz yil gavhar terasan.
Bir yil tut eksang,	Bir qo'l qilolmas.
Yuz hunarni chala bilgandan	Bir hunarni to'la bil.
Uch kishi bilgan sirni	Qirq kun salom ber.
Bir kun tuz ichgan joyga	Yuz kishi bilar.

Maqollardagi sonlarni aniqlab, o'zi bog'langan otlar bilan birgalikda yozing.

Namuna: *Ikki qo'l, bir qo'l...*

36-mashq. Hunar va kasb nomlarini yozing. Yoqtirgan kasbingizga o'z munosabatingizni sonlar orqali bildirib, qisqa matn tuzing.

Fe'l haqida ma'lumot

37-mashq. "O'qish savodxonligi" darsligida berilgan hikoyadan olingan parchani ko'chiring. Fe'llarning tagiga tegishlicha chizib, ularga so'roq bering.

Bahodir biroz turgach, so'z boshladi:

– Bir bola bor ekan. Yiqilib tushib, oyog'i sinibdi. Uni kasalxonaga olib borishibdi, oyog'i tuzalgandan keyin ham doktorlar uni uyiga yuborishmabdi. Shundan keyin bola erta-yu kech yig'layveribdi.

Shu yerga kelganda Bahodir biroz to'xtadi-da, keyin so'radi.

– Bilasanmi, nega yig'lagan?

– Uyiga yuborishmagani uchun yig'lagan. Adasini, oyisini sog'ingan-da, – javob qildi Bahromjon...

Shaxs va narsaning harakatini bildirgan so'zlar **fe'l** deyiladi. Fe'llar *Nima qildi? Nima qilyapti? Nima qiladi?* so'roqlariga javob bo'ladi.

38-mashq. Nuqtalar o'rniga kishilik olmoshlaridan mosini qo'yib, yozing.

Salom, Nargiza, ...ga maktabdagi tadbir haqida yozmoqchiman. Kecha sinfdoshlarimiz bilan "Zakovat" intellektual o'yinini o'tkazdik. ... guruh sardori bo'ldim. Ziyoda esa olib boruvchi bo'ldi. ... o'yinni qiziqarli olib bordi. ...ga tadbir juda yoqdi.

Salom bilan Shoira.

39-mashq. Matnda qatnashgan fe'llarga so'roq bering va o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring. Partadoshingiz bilan birga har faslda bajariladigan yumushlar haqida og'zaki dialog tuzing.

Har fasl o'ziga xos ob-havoga ega. Qishda ob-havo sovuq bo'ladi va qor yog'adi. Hamma yoq oppoq qor bilan qoplanadi. Bahorda havo iliq bo'lib, yomg'ir yog'adi. Yomg'irdan so'ng osmonda kamalak paydo bo'ladi. Yozda ob-havo issiq bo'ladi. Mevalar pishib yetiladi. Kuzda kunlar salqin bo'ladi va tez-tez yomg'ir yog'adi.

40-mashq. Testlarni yeching. Mustaqil ravishda fe'l so'z turkumiga oid 4 ta test tuzing.

1. **Qaysi javobda *sog'aymoq* so'ziga yaqin ma'noli fe'l berilgan?**

   A) kuchaymoq
   B) tuzalmoq
   D) zoriqmoq
   E) kasal bo'lmoq

2. **Chegarachilar tinchligimizni ...**

   A) asraydilar
   B) qo'riqlaydilar
   D) saqlaydilar
   E) bitiradilar

3. **Men uy ishlarida oyimga ...**

   A) qarashaman
   B) ko'maklashaman
   D) yordamlashaman
   E) tozalashaman

4. **Qishda kun qisqaradi, yozda ...**

   A) ko'payadi
   B) ozayadi
   D) kengayadi
   E) uzayadi

Fe'lning so'roqlari

41-mashq. Hikoyadagi fe'llarga so'roq bering.

Jasurbek maktabda nonushtasini yo'qotib qo'ydi. Katta tanaffusda hamma bolalar nonushtasini yeya boshladi. Jasurbek esa bir chekkada jim turardi.

– Nima uchun sen nonushtangni yemayapsan? – so'radi undan Javohir.

– Nonushtam yo'qolib qoldi.

– Bu yomon, – dedi Javohir pecheniysini tishlay turib. – Tushlik vaqtigacha hali uzoq!

– Sen uni qayerda yo'qotib qo'yding? – so'radi Madina.

– Bilmayman... – sekin gapirdi Jasurbek boshini egib.

– Menimcha, sen uni alohida idishda olib kelsang kerak-da. Agar sumkangda olib yursang, hech qachon yo'qotmaysan, – maslahat berdi Madina.

Aziza esa hech narsa demadi. Jasurbekning yoniga kelib, o'zining sariyog' surtilgan nonini teng ikkiga bo'ldi-da, unga uzatib:

– Ma, tezda yeb ol, hozir qo'ng'iroq chalinsa, ulgurmay qolasan, – dedi.

Aziz o'quvchi, sizningcha, bolalardan qaysi biri to'g'ri yo'l tutdi?

42-mashq. Matnni o'qing va husnixat asosida ko'chirib, fe'llarning tagiga chizing.

Bizning maktab

Maktabimizning hamma sinfxonalari toza va chiroyli. Maktabning faollar zalida turli tadbir, tanlov va uchrashuvlar, sport zalida musobaqalar o'tkaziladi. Kutubxonada kitoblar ko'p. Biz u yerda turli mavzulardagi kitoblarni o'qiymiz. Maktabimiz bog'ida chiroyli gullar va daraxtlar o'sadi. Bizga maktabimiz juda yoqadi.

43-mashq. Jadvaldagi so'roqlarga mos fe'llar topib, daftaringizga ko'chiring. *Nima qildi? Nima qiladi?* so'roqlarining farqini izohiab, misol keltiring.

Nima qildi?	Nima qilyapti?	Nima qiladi?
yog'di	kuylayapti	o'ylaydi

44-mashq. Matnni ko'chiring va fe'llarning tagiga chizng.

Tabiat go'zalligini his qila olarmidingiz?

Bahor kelganda bizni eng sevintiradigan hodisa butun tabiatning uyg'onishidir. Bu uyg'onish turfa gullar va daraxtlarning xushbo'y hidi bilan yanada yoqimli bo'ladi.

Biz tabiat iforidan huzurlanamiz. Bunda burnimizning o'rni beqiyos. Chunki burnimiz eng xushbo'y hidlarni miyamizga uzatadi. Miyamiz esa butun tanamiz bo'ylab bu hidning yoqimli ekanligi haqida ma'lumot jo'natadi va biz undan huzurlana boshlaymiz.

Burnimiz qabul qilgan hidni to'g'ridan to'g'ri miyaga uzatishi bejiz emas. Chunki burundagi hid sezuvchi nerv tolalari to'g'ridan to'g'ri miya bilan bog'langan bo'ladi. Bu esa burnimiz miya uchun "atir" eltib beruvchi "savdogar" vazifasini bajarishini anglatadi.

("Mening birinchi ensiklopediyam". – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2019.)

Yaqin ma'noli fe'llar

45-mashq. Berilgan rasmlarga mos gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizdagi fe'llarga yaqin ma'noli fe'llar toping.

Namuna:

Odiljon gullarni yoqtiradi (yaxshi ko'radi, mehr beradi).
U gullarni yaxshi parvarishlaydi (qaraydi, o'stiradi).

46-mashq. Harakatni bildirgan so'zlardan mosini qo'yib ko'chiring. Fe'llarga so'roq bering.

Kamalak ... . Shamol ... . Yomg'ir ... . Suv ... . Kitobni ... . Daftarga ... . Ko'chatni ... . Rasm daftarga ... .

47-mashq. Berilgan so'zlardan harakatni bildirgan so'zlarni ajratib, yaqin ma'noli fe'llar bilan birga yozing.

Yugurdi, o'qidi, uxladi, dam oldi, qizil, sariq, daftar, qalam, o'n, besh, ellik, quvondi, ko'rdi, muzladi, ko'kardi, tabrikladi.

48-mashq. Gapning mazmuniga mos so'zlar qo'yib, she'rni o'qing va ko'chirib yozing.

Erta bilan
Maktab tomon
Quvnab-quvnab ... .
Ehe, yo'lda
Qancha-qancha
Odamlarga ... .

Tanish bo'lsin,
Xoh notanish,
Salomlashmay ...
Aks holda,
Men o'zimni
Shod-xurram his ... .

Shodi Sattor

Foydalanish uchun so'zlar: *duch kelaman, etolmayman, yo'l olaman, o'tolmayman.*

49-mashq. Quyidagi fe'llarni so'roqlari asosida guruhlab ko'chiring. Ularga yaqin ma'noli fe'llar topib, birgalikda yozing.

Yog'di, o'qidi, sevindi, kuylayapti, o'ylaydi, quvondi, esadi, yozyapti, ma'rayapti, so'zlaydi.

Ijodkorlik soati. Loyiha ishi

50-mashq. Maktabni bitirgan aka-opalaringizdan ustozingizga xat keldi. Ustozingiz juda quvondi. Siz ham ustozingizni xursand qilish uchun xat yoki tabriknoma yoza olasizmi?
Qani, harakat qiling!

Hurmatli ustozim!

Sizni tez-tez eslab turaman. Menga bergan ta'lim-tarbiyangiz tufayli men hozirda o'qituvchilik sohasida yosh avlodga ta'lim berib kelmoqdaman. Olgan saboqlarim asosida sizdek ustoz bo'lishga harakat qilyapman. Men sizdek ustozim borligidan faxrlanaman. Doimo bizning va farzandlaringizning baxtiga sog'-salomat bo'lib, shogirdlar ardog'ida yuring.

Hurmat bilan shogirdingiz!

51-mashq. Chalkashtirib berilgan harflardan so'zlar tuzib yozing va ularni fe'llarga bog'lab gaplar tuzing.

SHQI	LGU	NOA	KUA	UPL

MLAOS	KAMBAT	LAMAHLA	BTOKI	AMLMATKA

52-mashq.

Mavzu: Mening qadrli ustozim!

1. *Mening shaxsiy fikrim – bebaho ustoz.*

O'qituvchilik nafaqat kasb, balki unvondir!

5 ta ot so'z turkumiga oid so'z

_____
_____
_____
_____

5 ta sifat so'z turkumiga oid so'z

_____
_____
_____
_____

5 ta fe'l so'z turkumiga oid so'z

_____
_____
_____
_____

2. *Jadvaldan ustoz, sinf, mehribon, dars, maktab, bilimli, fidoyi so'zlarini topib, ular ishtirokida gaplar tuzing.*

U	S	A	S	I	O	F	G
V	T	O	J	N	F	I	D
N	I	Z	L	K	M	F	O
M	E	H	S	F	S	J	Y
S	G	R	M	A	A	B	I
R	O	I	Q	K	T	I	L
H	J	B	O	N	P	H	I
D	A	R	S	U	I	L	M

3. *Ustozingizga atab tabriknoma yozing.*

_____
_____
_____
_____
_____
_____
_____
_____
_____
_____

Gap mazmuniga mos fe'llar topish

53-mashq. Qavs ichidagi qaysi fe'llar gap mazmuniga mos kelishini aniqlab, gaplarni davom ettiring.

1. O'quvchilar sayohatga ... (bordilar, chiqdilar). 2. Odobli bolalar ota-onasiga ... (qarashadilar yordamlashadilar). 3. Munira barvaqt ... (turdi, uyg'ondi). 4. U yuz-qo'lini (chayib, artib, yuvib), bog'ga (bordi, kirdi).

54-mashq. Fe'llarni o'qing, bu so'zlar qaysi shaxs-narsalar harakatini bildirishini yozing.

... – yoritadi, isitadi.

... – sakrayapti, ma'rayapti.

... – sayrayapti, uchyapti, yayrayapti.

... – yuguradi, kishnaydi.

55-mashq. Nuqtalar o'rniga gap mazmuniga mos fe'l tanlab, gaplarni to'ldiring. Qarshi ma'noli fe'llarni juftlab ko'chiring.

- Rejali bola vaqtida uyqudan turadi, o'z vaqtida ...
- Qishda kun qisqaradi, yozda ...
- Metall issiqda kengayadi, sovuqda ...
- Tong otdi, quyosh ...
- Soy suvi kunduzi ko'payadi, tunda ...
- Issiqda issiqxonaning usti ochiladi, kun soviganda ...

56-mashq. Qavs ichidagi qaysi fe'llar jonivorlar harakatiga mos kelishini aniqlab, gaplarni o'qing.

1. Qushlar simyog'ochga (qo'ndi, o'tirdi). 2. Tovuqlar (donlayapti, ovqatlanyapti). 3. Olapar uychasidan (qarayapti, mo'ralayapti). 4. Mushuk quyosh nurida (yayrayapti, rohatlanyapti).

57-mashq. So'roqlarga mos fe'l tanlab, gaplarni yakunlang.

1. Hamon qor (nima qilyapti?) 2. Qushlar chirqillab, don (nima qiladi?) 3. Buvim peshayvonga don (nima qildi?) 4. Musicha, chumchuqlar peshayvondagi donlarni (nima qilyapti?) 5. Baroq mushuk sekin (nima qildi?) 6. Qushlar gur etib (nima qildi?)

Foydalanish uchun so'zlar: *izlaydi, yog'yapti, uchib ketdi, yeyapti, sepdi, yaqinlashdi.*

58-mashq. O'qing. Fe'llarga so'roq bering. Qavs ichiga fe'llarning so'roqlarini yozib, gaplarni ko'chiring.

1. Shamol yaproqlarni (...) silkitdi. 2. Tikuvchi kiyim (...) tikyapti. 3. Bog'bon bog'da olma (...) teradi. 4. Alisher rubob (...) chalyapti. 5. Qushlar in (...) quradi. 6. Yomg'irdan so'ng osmonda kamalak (...) ko'rindi.

59-mashq. O'qing. Qavs ichida berilgan so'zlardan mosini qatnashtirib, gap tuzing.

1. Chegarachilar tinchligimizni (qo'riqlaydi, saqlaydi, asraydi). 2. Men uy ishlarida onamga (qarashaman, yordamlashaman). 3. Bolalar tinchlikni (xohlaydi, istaydi, tilaydi). 4. Poyezd soat 10 da (ketadi, jo'naydi).

60-mashq. Matn mazmuniga mos fe'llarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

Ayrim hayvonlar faqat bir xil ozuqa bilangina ... . Koala Avstraliyada evkalipt daraxtida ... va evkalipt daraxtining shirador barglarini ... .

Foydalanish uchun so'zlar: *yashaydi, yeydi, oziqlanadi.*

Fe'l ma'nolari ustida ishlash

61-mashq. Jadvaldagi so'zlarning so'roqlarga mosini raqamlari bo'yicha ajratib yozing.

1. oq	2. Gulzira	3. kuldi	4. bodom
5. ochildi	6. shirin	7. to'rt	8. turdi
9. ishchi	10. Durdona	11. ko'za	12. beshta

Namuna: *Kim? – 2, Nima? – 4, Nima qildi? – 3, Qanday? – 1, Nechta? – 12*

62-mashq. Matnda berilgan fe'llarga yaqin ma'noli fe'llar toping va tahlil qiling. Matnni husnixat bilan ko'chirib, fe'llarning tagiga chizing.

Choy – qora choy, ko'k choy kabi navlarga (ba'zi mamlakatlarda sariq va qizil choylar ham tayyorlanadi) bo'linib, sochma va presslangan hamda taxta choy holida ishlab chiqariladi. Bizga tayyor holda yetib kelguncha choy barglari avval ko'p jarayonlardan o'tadi: u so'litiladi, quritiladi, navlarga ajratiladi va qadoqlanadi. Bu ishlarning hammasini maxsus



uskunalar bajaradi. Mutaxassislar esa choy qimmatli sifatini yo'qotmasligini, unda kofein, tanin va efir moylarining saqlanishini kuzatib turadilar. Kofein kishini tetik qiladi, tanin choy ichimligiga yoqimli, taxirroq ta'm beradi, efir moylari esa choyni xushbo'y qiladi.

Sizningcha, nega choy hammaga birdek yoqadigan ichimlik hisoblanadi? Fikringizni izohlang.

63-mashq. Matnga mos fe'llarni topib, matnni ko'chiring.

Eman daraxti qadimdan xo'jalikda ... . Eman yog'ochi juda qattiq ... . U suvda ... , shuning uchun undan ko'priklar uchun qoziqoyoqlar ... . Eman yog'ochidan kemalar va vagonlar yasashda ... , mustahkam uylar ... . Emandan ajoyib parket yog'ochlari, chiroyli fanerlar, bochka taxtalari ... .

Foydalanish uchun so'zlar: *tayyorlanadi, quriladi, bo'ladi, foydalaniladi, ishlanadi, chirimaydi, qadrlanadi.*

64-mashq. Berilgan fe'llarga yaqin ma'noli fe'llar tanlang va ularni birgalikda yozing.

Sog'aymoq, tugatmoq, asramoq, yugurmoq, yig'moq.

Namuna: *sevinmoq – quvonmoq.*

Foydalanish uchun so'zlar: *tuzalmoq, quvonmoq, bitirmoq, chopmoq, saqlamoq, to'plamoq.*

65-mashq. Berilgan matndagi fe'llarni ajrating va namuna asosida tahlil qiling.

Odobli bola dasturxon atrofiga kelib o'tirishdan oldin qo'llarini sovun bilan yuvadi. Dasturxonga noz-ne'matlarni qo'yishda, taomlarni keltirishda onasiga yordamlashadi. Dasturxon atrofiga o'tirayotganda o'zboshimchalik bilan dasturxon to'riga o'tib ketmaydi. Taom yeyishni kattalar boshlab berishini kutadi. Taomni biroz engashib, to'kmay yeydi.

Namuna:

Kulyapti

1. *Fe'l so'z turkumi.*
2. *Nima qilyapti? so'roqlariga javob bo'ladi.*
3. *Harakatning bajarilganini bildiryapti.*
4. ***-yapti** qo'shimchasi yordamida yasalgan.*
5. *Bo'lishli fe'l.*
6. *Yaqin ma'noli so'zi – jilmayyapti.*

Nima deb o'ylaysiz, odobsiz bola dasturxon atrofida o'zini qanday tutadi? Kimlarni odobsiz bola deb aytamiz?

66-mashq. She'rdagi fe'llarni toping va ko'chiring.

Bolg'a

Dangasa demang meni,
Men har ishda chaqqonman.
Bultur bir qop yong'oqni
Bitta o'zim chaqqanman.

Bir qop yong'oqqa, ehe,
Qancha odam to'ymoqda.
Mix deysizmi, boltavoy
O'zi qoqib qo'ymoqda.

Ombur

Xato qilsa bolg'avoy,
Darrovda tuzataman.
Qiyshiq mixni sug'urib,
To'g'rilab uzataman.

Ikki jag'im – boyligim,
Ish ko'p, ulgurish kerak.
Yordamlashib yuboring,
Mixni sug'urish kerak.

Ne'mat Dushayev

Siz uy yumushlarida qanday ish qurollaridan foydalanasiz? Ularning vazifasini ayting.

67-mashq. "Kim tez topadi?" ta'limiy o'yini. Berilgan buyumlar qaysi vazifalarni bajarishini toping.

Buyumlar	Vazifasi
ketmon	devor suvaladi
randa	yer chopiladi
belkurak	daraxtlarning shoxlari kallaklanadi
andava	daraxtlarning tagi yumshatiladi
arra	taxta randalanadi

68-mashq. O'qing. Nuqtalar o'rniga mos fe'llarni topib, matnni ko'chiring.

Biz iste'mol qiladigan mahsulotlarning asosiy qismi o'simliklardan olinadi.

O'simliklar orqali meva va sabzavotlar ... . Meva va sabzavotlar inson uchun juda ham muhim ozuqa ... . Unda inson salomatligi uchun zarur vitamin va mikroelementlar ... . Bu o'simliklarni yetishtirishda bobodehqonlarimiz va bog'bonlarimizning mehnatlari beqiyos. Bog'bonlar mevali daraxtlarning hosilini ko'paytirishni o'ylashsa, dehqonlarimiz sabzavotlardan mo'l hosil olishni rejalashtirib, ...



Foydalanish uchun so'zlar: hisoblanadi, ter to'kishadi, mavjud, yetishtirib olamiz.

69-mashq. "Bumerang" o'yini. Tezkor savol-javob o'tkazing.

1. Ot deb nimaga aytiladi?
Ot yasovchi qo'shimchalarni ayting.

2. Sifat deb nimaga aytiladi?
Sifat yasovchi qo'shimchalarni ayting.

3. Fe'l deb nimaga aytiladi?
Fe'llar necha xil bo'ladi?

70-mashq. Nuqtalar o'rniga mos fe'llarni tanlab, ko'chiring.

Men kichik chegarachi
Postda hushyor ... .
Zimziyo tevaragim,
Har sharpani ... .
Hamma odam uxlasin,
Mayli, olam ... ,
Yurt tinchini ... ,
Degan so'zim ... .

Qambar Ota.

Foydalanish uchun so'zlar: *kezaman, sezaman, uxlasin, saqlayman, oqlayman.*

71-mashq. Matnni o'qing.

Ko'pchiligimiz fantast yozuvchilarning kitoblarini o'qishni, kosmik sarguzashtlar haqida filmlar tomosha qilishni yaxshi ko'ramiz.

Bunday asarlarning mualliflari ko'plab ixtiro va kashfiyotlarni ancha oldin asarlarida bayon qilishgan. Masalan, fransuz yozuvchisi Jyul Vernning "Yerdan Oyga" asarida odamlarning Yer yo'ldoshiga ilk parvozi haqida hikoya qilingan. Muallif parvoz tafsilotlarini kosmik kemalar qurilishidan deyarli 100 yil muqaddam tasvirlab bergan.

Mutaxassislarning aytishicha, yozuvchining ta'riflari to'g'ri bo'lib chiqdi. Shuning uchun vaqti kelib, faqat fotosuratlarda ko'rgan sayyoralarga bemalol parvoz qilishimiz ajablanarli emas.

Siz kelajakda kosmosga parvoz qilishni qanday tasavvur qilasiz? Kosmos haqida tasavvuringizni yozing. Tasavvuringizni do'stlaringiz bilan bo'lishing.

Fe'llarning talaffuzi va imlosi

Ayrim hollarda so'zlashuvda bo'lishsizlik qo'shimchasi *-miy* tarzida talaffuz qilinsa ham, doimo *-may* deb yoziladi: *bormiyman – bormayman, sozliyman – sozlayman, yozmiyman – yozmayman* kabi.

72-mashq. So'roqlarga mos fe'llar tanlab, gaplarni o'qing va ularni ko'chiring.

1. Alisher kecha bog'da (nima qildi?). 2. U bugun (nima qilyapti?) 3. Alisher ertaga (nima qilmoqchi?). 4. Alisher bilan Mohirbek kecha (nima qildilar?). 5. Alisher bilan Mohirbek bugun (nima qilyaptilar?). 6. Alisher bilan Mohirbek ertaga (nima qilishmoqchi?).

Namuna: *Alisher kecha bog'da ko'chatlarning tagini yumshatdi.*

Siz ham kecha, bugun, ertaga qilmoqchi bo'lgan va bajargan ishlaringizni ayta olasizmi?

73-mashq. Gapning mazmuniga mos fe'llar tanlab, matnni ko'chiring.

- Cho'l hududida yog'ingarchilik 2000 mm gacha ... .
- Cho'lda yoz 6 oy ... .
- Cho'lda bo'g'ma ilon, kapcha ilon, cho'l qora iloni, qalqontumshuq kabi ilonlar ko'p ... .
- Cho'lda havo temperaturasi 100 darajagacha ko'tarilishi mumkin.
- Cho'lda yantoq o'simligi ildizining uzunligi 2 metrni ... .
- Yer sayyorasining to'rtdan ikki qismini suv ... .
- Tuya suvsizlikka bir hafta ... .
- Cho'lni o'zlashtirish ekologik halokatlarning ... .
- Issiq quruq shamol – *garmsel* deyiladi.
- O'lkamiz cho'llarida kaltakesakning faqat cho'l agamasi va qizilquloq kaltakesaklarini uchratish mumkin.
- O'lkamizdagi gilli cho'llarning katta qismi insonlar tomonidan ...
- Qishda cho'lda havo harorati 60 darajagacha sovuq bo'lib, qor ... .

Foydalanish uchun so'zlar: *uchraydi, chidaydi, oldini oladi, egallagan, tashkil etadi, yog'adi, bo'ladi, o'zlashtirilgan, davom etadi.*

Ushbu so'zlarning talaffuzi, imlosi va yozuvda ifoda etilishini tushuntiring.

74-mashq. "O'qish savodxonligi" darsligidagi "Kitobni qanday o'qish kerak?" hikoyasida qatnashgan fe'llarni o'zi bog'langan so'zlar bilan birga ko'chiring.

75-mashq. ***Yiqilmoq, qulamoq, ag'anamoq, yumalamoq*** **fe'llarining ma'nosida farq bormi? Shu fe'llar ishtirokida ikkita gap tuzing.**

76-mashq. O'qing. She'r nima haqida ekanini ayting. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga yaqin ma'noli so'zlar toping.

Saxiy quyosh nuridan
Badanlar toblanadi.
Soyapar bolalar-chi,
Tez-tez **betoblanadi**.

Ilyos Muslim

Berilgan fe'llarga yaqin ma'noli so'zlarni toping.

Aytdi – ... , kuldi – ... , ekdi – ... .

Ijodkorlik soati. Loyiha ishi

77-mashq. Partadoshingiz bilan "G'aroyib kun", "Yozma ish kuni", "Sirkka sayohat" mavzularidan biriga kino uchun ssenariy yozing. Voqea tafsilotini dialog usulida bering.

Reja:

1. Muallif so'zi.
2. Qahramonlarni tanishtirish.
3. Muammo.
4. Yechim.
5. Xulosa.

78-mashq. Quyidagi muammoli vaziyatlarga to'g'ri yechim topib, yozing.

Nima qilish kerak?

1. Quyosh nuri tushib turgan sinfxonaning chirog'i yoniq holda turibdi.
2. Hovli tashqarisini supurayotgan qizaloq axlatni ariqdagi suvga tashlamoqchi bo'lyapti.
3. Non va shirin kulcha bo'laklarini axlat idishga tashlayotgan bolani ko'rib qoldingiz.
4. Ko'chada mushuk yoki kuchuk bolasini qiynayotgan bolaning yonidan o'tib ketyapsiz.

79-mashq. **Quyidagi boshqotirmada berilgan kasb egalarini topib, ularning bajaradigan harakat va yumushlarini yozing.**



Siz kelajakda qaysi kasb egasi bo'lmoqchisiz? Nima uchun aynan shu kasbni tanladingiz?

80-mashq. Uyingizga borib, muzlatkichdan bor meva va sabzavotlarni chiqarib oling. Ulardan yaxshi bilganlaringizni: qanday o'sib-yetilganini ko'rganingizni, o'zingiz yig'ib-terib olganingizni tanlang. Chizmadan foydalanib, sabzavotlar haqida hikoya tuzing. Tuzgan hikoyangiz to'liq, qiziqarli bo'lishiga harakat qiling.

Nomi	Rangi	Shakli	Ta'mi	Qayerda o'sadi?	Qanday holda tanovul qilinadi? Qishga qanday g'amlanadi?

Nima uchun sabzavot va mevalarni muzlatkichda saqlash kerak, deb hisoblaysiz?

Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar

Keldi, bordi, aytdi kabi fe’llar harakatning bajarilganini bildiradi. Bunday fe’llar **bo‘lishli fe’llar** deyiladi.
Kelmadi, bormadi, aytmadi kabi fe’llar esa harakatning bajarilmaganini bildiradi. Bunday fe’llar **bo‘lishsiz fe’llar** deyiladi.
Bo‘lishli fe’lga ***-ma*** qo‘shimchasini qo‘shish bilan bo‘lishsiz fe’l hosil qilinadi.

81-mashq. Bulutlar ichidan faqat bo‘lishli fe’llarni topib ko‘chiring va ular asosida gaplar tuzing.

BORA OLMADI

FIKRLADI

CHIZDI

KELDI

NISHONLADI

BAHOLAMADI

QUVLADI

YUVDI

AYTMADI

82-mashq. Og‘zaki savol-javob.

1. Fe’l deb nimaga aytiladi?
2. Fe’lning bo‘lishli shakli qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?
3. Fe’lning bo‘lishsiz shakli qanday yasaladi?
4. Bo‘lishsiz fe’llar imlosi haqida nimalarni bilasiz?

83-mashq. Topishmoqlarni o‘qing. Fe’llarni toping. Topishmoqlar javobini yozing. Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar tagiga ikki chiziq chizing.

Yomg‘irdan so‘ng chiqadi,
Cho‘tir qalpoq kiyadi.
Quyoshni yoqtirmaydi,
Shamolni chaqirmaydi.

JOYNUNLAM

ESHIK

Yashil savatning boshi
Suvga qarab egildi.
Chilvir-chilvir sochlari
Zilol suvda yuvildi.

BALIQ

Qanoti bor, uchmaydi,
Suvdan aslo chiqmaydi.

Yuradi – siljimaydi,
Moysirab, g‘irchillaydi.

SOAT

Mehnat qilib tolmaydi,
Sira orom olmaydi.

QOZIQORIN

84-mashq. Harakatning bajarilishidagi farqni hisobga olgan holda quyida berilgan bo‘lishli fe’llarning bo‘lishsiz shaklini toping va ularni ustunga namunadagidek ajratib yozing. Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llarga oid ikkita gap tuzing.

Namuna: *yurdi – yurmadi.*

Harakat bajarildi	Harakat bajarilmadi
yurdi	...
siljidi	...
g‘irchilladi	...
uchdi	...
chiqdi	...
egildi	...
yuvildi	...

85-mashq. "O'qish savodxonligi" darsligidagi "Mehr urug'i" ertagidan olingan parchani o'qing. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni ikki ustun shaklida alohida ko'chiring.

Qadim zamonda bir badavlat odam bo'lgan ekan. U bir kuni tush ko'ribdi. Tushida bozorda yurgan emish. Bir do'konning ichiga kiribdi. Sotuvchi chol unga peshvoz chiqib, nima kerakligini so'rabdi. Haligi odam:

– Men boy-badavlat odamman, hech narsaga hojatim yo'q, shunchaki aylanib yuribman, – deb javob beribdi. Sotuvchi esa:

– Ey o'g'lim, bu dunyoda hamma narsasi bor odam bo'lmaydi, hatto badavlat odamlarga ham nimadir yetishmaydi, – debdi. Haligi odam o'ylab turib:

– To'g'ri aytasiz, otaxon, lekin menga kerak bo'lgan narsalar bozorda sotilmaydi-da, men ularning narxini ham bilmayman, – debdi...

quy+ma=quyma
ishla+ma=ishlama
bor+ma=borma
sakra+ma=sakrama
yugur+ma=yugurma
tegin+ma+teginma

"O'qish savodxonligi" darsligi bilan ishlash kuni

86-mashq. Ikki guruhga bo'lining, guruhlardan bittadan o'quvchi doskaga chiqib, birinchi guruh harakatning bajarilganini ifodalovchi fe'llarni, ikkinchi guruh harakatning bajarilmaganini bildirayotgan fe'llarni topib yozing. *-ma* qo'shimchasining tagiga chizing.

Namuna:

Harakat bajarildi	Harakat bajarilmadi
ko'rishdi suhbatlashdilar	ko'rishmadi suhbatlashmadilar

87-mashq. "O'qish savodxonligi" darsligidagi "Bilasizmi, bolalar?" she'ri yuzasidan she'riy tahlil o'tkazing. She'rdagi bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni toping. She'rni ko'chiring.

Zo'ravon kim, qo'rqoq kim,
Bilasizmi, bolalar?
Bularning har ikkisi –
Qo'rqoq ko'zli bolalar.
Zo'ravonlik nomiga
Asli qo'rqoq o'zlari.
Sag'al gapga jiringlab,
Ola-kula ko'zlari.
"Kel, qo'y", desang qaramay,
Yoqangizdan tutadi.

Bunday maqtanchoqlardan
Kim polvonlik kutadi?
Polvon boshqa, bilsangiz,
U og'ir, yuvosh bo'lar.
Bir kuchin ko'rsatsami,
Qirq bolaga bosh bo'lar.
Yo'q, yo'q, u juda kamtar,
Manmanlikni xushlamas.
O'rtoqlarin hurmatlar,
Yoqasidan ushlamas.

Tolib Yo'ldosh

88-mashq. "O'qish savodxonligi" darsligida berilgan "Kapalak" hikoyasidagi fe'llarni ajratib, o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring. Bo'lishsiz fe'llarning tagiga ikki chiziq chizing.

Kapalak

Mahmud Murodov

Bahromjonning tili biyron chiqqan bo'lsa ham, hali ko'p narsalarning nomini bilmasdi. Bir kuni u yugurib uyga kirdi-da, Bahodir akasining qo'lidan tortqilay boshladi. Menga ham yopishib: "Yuringlar, kattakon kapalak", – dedi.

Hovliga chiqdik. Yo'lakda bir chumchuq bolasi yotardi. Inidan tushib ketibdi. Og'zini kappa-kappa ochadi. Olib qarasam, bir oyog'i singan. Bahodir ikkimiz "vrachlik" qildik. Qushchaning singan oyog'iga qog'oz o'rab, ip bilan yaxshilab bog'lab qo'ydik. Go'yo taxtakachladik. Iniga qo'yaylik desak,

bo'g'otning ichiga qo'l sig'maydi. O'z aqli bilan kirib ham ketmaydi. Tag'in mushukka yem bo'lmasin, deb botinka qutisiga solib, uy tokchasiga qo'ydik. Bahodir pashsha tutib berdi. Bahromjon non uvoq bilan mehmon qilib turdi. Qushcha kundan kun o'sib, qutichadan chiqib, uyni aylanadigan bo'lib qoldi. Ba'zan ona chumchuqning ovozini eshitib, chirqillab qo'yadi. Bahromjon esa: "Kapalak gapiryapti", – deb sevinchi ichiga sig'maydi. Buni eshitgan akasi: "Kapalak emas, chumchuq", – deb qo'yadi.

Bir kuni oyog'ini yechsak, yarasi bitibdi. Ikki-uch kundan keyin esa pirillab uchadigan, o'zini derazaga uradigan, tinimsiz chirqillaydigan bo'lib qoldi.

– Uchirib yuboramizmi chumchuqni? – deb so'radi Bahodir ukasidan.

Bahodirjon ko'nmadi:

– Kerakmas, kerakmas! Chumchuqni uchirmayman, – deb turib oldi.

Men, ular qanday to'xtamga kelishar ekan, deb indamay turdim. Bahodir biroz turgach, so'z boshladi...

89-mashq. **"O'qish savodxonligi" darsligida berilgan "Kitobning qimmati" hikoyasidagi bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni ustun shaklida ajratib yozing.**

Namuna:
yozdi – yozmadi
uxlayapti – uxlamayapti
saqlaydi – saqlamaydi

Fe'l yasovchi qo'shimchalar

Fe'l so'z turkumi bo'yicha bilimlarni mustahkamlash

Testni bajaring	Muammoli vaziyat
1. Fe'l so'z turkumi qanday so'roqlarga javob bo'ladi? A) Kim? Nima? B) Qanday? Qanaqa? D) Nima qildi? Nima qiladi? E) Qancha? Nechta? 2. Fe'l so'z turkumi gapda qanday vazifani bajaradi? A) Ega B) Kesim D) Ikkinchi darajali bo'lak E) Ega va kesim 3. Bo'lishsiz fe'l qanday hosil qilinadi? A) *-ma* qo'shimchasi yordamida B) qo'shimcha qo'shilmaydi D) *-lar* qo'shimchasi qo'shiladi E) hosil qilinmaydi	Shaxslarning harakatini aniqlang. 1. Shifokor haydaydi. 2. Bog'bon ta'lim-tarbiya beradi. 3. Haydovchi davolaydi. 4. O'qituvchi parvarish qiladi.

90-mashq. So'zlarning asoslarini aniqlang. Har bir so'zga so'roq bering. Ular nimani bildiradi? Sifatlarni birinchi ustunga, otlarni ikkinchi ustunga va fe'llarni uchinchi ustunga yozing. Asos va so'z yasovchi qo'shimchalarni namunadagidek belgilang.

Ish, ishchi, ishchan, ishladi; arra, arrala; soz, sozlaydi; gul, gulladi, gulli, gulsiz; randa, randalayapti; qish, qishlaydi; oq, oqladi.

Namuna:

Sifatlar:	*Otlar:*	*Fe'llar:*
ishchan	ishchi	ishla
...	...	...

91-mashq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'noli qismi bir bo'lganlarini yonma-yon yozib, asos va yasovchi qo'shimchalarni tegishlicha belgilang.

1. Abror **tayyor** mashqni ko'chirdi. Maftuna tanlov uchun nutq **tayyorladi.** 2. **Ko'z** qo'rqoq, qo'l botir. So'zlaganda mazmunni **ko'zla**. 3. **Qars** ikki qo'ldan chiqadi. Tun qorong'isida dahshat bilan bir narsa **qarsilladi**. 4. Qarg'a, **"qag'"** dedi, mushuk **"miyov"** dedi. Qarg'a **qag'illadi**, mushuk **miyovladi** *(Ertakdan)*. 5. Radiodan sho'x **kuy** taralmoqda. Vatan madhini zavq bilan **kuyladik**.

Namuna: *ko'z – ko'zla, so'z – so'zla, qars – qarsilladi, qag' – qag'illadi, miyov – miyovladi, kuy – kuyladik.*

92-mashq. So'z yasovchi *-la, -illa (-ulla)* qo'shimchalardan mosini qo'yib, fe'l hosil qiling. Qavs ichidagi ikkinchi so'zni tushirib qoldiring.

Toza, ta'rif, taq(tuq), shivir(shivir), tuz, g'uv(g'uv), tabrik, vaq(vuq), qaychi, so'z, g'ing(g'ing), dasta, pichir(pichir).

Namuna: *tozala, ta'rifla.*

93-mashq. *-la, -illa* qo'shimchalari bilan yasalgan fe'llarni aniqlab, tagiga chizing.

Ovqat yesa, og'zini chapillatar,
Goh o'tirgan partasini taqillatar.
Ko'chadagi kuchuklarni akillatar,
Birov uyin so'rasangiz, laqillatar.
– Qaysi bola?
– Qaysar bola.

Po'lat Mo'min

Yoqimtoy kompozitor
Bo'lsammi, deb o'ylayman.
O'zim yozib termasin,
O'zim kuyin kuylayman.

G'afur G'ulom

Bog'+la=bog'la
muz+la=muzla
fikr+la=fikrla
tayyor+la=tayyorla
qadr+la=qadrla

94-mashq. Berilgan rasmlardagi narsalar nomiga *-la* qo'shimchasini qo'shib, fe'llar hosil qiling.

95-mashq. "O'rnini top" ta'limiy o'yini. So'z yasovchi qo'shimchalarni toping va raqamlarini mos kelgan javobga qo'ying.

1 – dor	2 – dosh	3 – ga	4 – siz	5 – dan
6 – ning	7 – kor	8 – li	9 – la	10 – zor
11 – illa	12 – da	13 – loq	14 – chi	15 – ni

1. Ot yasovchi qo'shimchalar:
2. Sifat yasovchi qo'shimchalar:
3. Fe'l yasovchi qo'shimchalar:
4. So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar:

96-mashq. So'z yasovchi *-la, -illa* qo'shimchalaridan mosini qo'yib, fe'l hosil qiling. Qavs ichidagi ikkinchi so'zni tushirib qoldiring.

Chiq, arra, toza, shov, gul, tuz, so'z, oq, taq(tuq), ak(ak), vaq(vuq), chap(chap), dasta.

Yasalgan fe'llarni namunadagidek yozing va belgilang. Qo'shimchalar ustiga tegishli belgini qo'ying.

Namuna: *-la* *-illa*

arra͡la *taqi͡lla*

Ijodkorlik soati. Loyiha ishi

97-mashq. Faraz qiling, sizga innovatsion ovqatlanish stoli yaratish imkoniyati berildi. Siz uni qanday ko'rinishda yaratar edingiz? U insonlar uchun qanday qulayliklar keltirishini xohlaysiz?

Siz ham buyuk kashfiyotchisiz!

Qo'lingizdan nima kelishi mumkinligi haqida hech o'ylab ko'rganmisiz? Agar yaxshiroq o'ylab ko'rsangiz, sizda ham ajoyib iste'dod borligini sezasiz. Faqat uning ustida ishlashingiz, tinimsiz mehnat qilishingiz kerak bo'ladi. Yodingizda tuting, eng muhimi, siz buyuk kelajakni o'zingizdan boshlashingiz kerak!

Buyuk ishlarda shoshilmang!

Siz iste'dodingizni yuzaga chiqarishda ko'plab to'siqlarga duch kelishingiz mumkin. Bunday paytlarda eng aziz insonlaringizni ko'z oldingizga keltiring-da, bu ishni ular uchun, albatta, amalga oshirishingiz kerakligini ichingizda takrorlang. Ana shunda sizda kuch paydo bo'ladi.

Maqsadga erishishning oltin qoidasi – maqsad zinapoyasini birma-bir bosib o'tish lozim.

98-mashq. Siz ham partadoshingiz bilan namunadagidek dialog o'tkazing. Dialog mavzusi "Do'konga chiqdim", "Kinoga bordim", "Kitob o'qidim", "Qo'shnimga yordam berdim" mazmunida bo'lsin. Tuzgan dialogingizni daftaringizga ko'chiring.

Namuna:

Suhbat.

– Sen oziq-ovqatlar do'koniga borganmisan?

– Ha, men do'konga borganman.

– Men non, shakar, guruch, tuz va sut sotib olganman.

– Non bilan nima yeyish mumkin?

– Non bilan sariyog' va pishloq yeyish mumkin.

– Senga qanday sharbatlar yoqadi?

– Menga o'rik va nok sharbatlari yoqadi.

– Sotuvchi qaytimni noto'g'ri hisoblagan paytlari bo'lganmi, shunda sen qanday yo'l tutgansan?

– To'g'ri hisoblab, shuncha qaytim berishingiz kerak edi, deb xushmuomalalik bilan aytganman.

Ovqat hazm qilish sistemasi o'z vaqtida ovqatlanmaslik, surunkali ochlik, o'ta to'yib ovqatlanish kabi illatlar tufayli kasallikka chalinishi mumkin. Qolaversa, meva va sabzavotlarning yuvilmasiigi, go'shtli mahsulotlarning yetarlicha pishirilmasligi kabi holatlar ham ushbu a'zolarga yetarlicha zarar yetkazishi aniqlangan.
Siz maqsadlaringizga erishish uchun, albatta, sog'lom bo'lishingiz kerak. Sog'lomlik esa ovqatlanish tartibi va sifatiga bog'liq.

99-mashq. Topshiriqlarni bajaring.

1. Gaplardagi to'g'ri ma'lumotlarni topib, ko'chiring.

- Dunyoning yetti mo'jizasidan biri Toj Mahal me'moriy yodgorligi (turkiylar, boburiylar, hindlar) tomonidan barpo etilgan.
- Insonni hayratga soluvchi piramidalar (Marokashning, Makkaning, Misrning) ramziga aylangan.
- San'at shaydolarining sevimli asari "Mona Liza" rassomlar (Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Ayvazovskiy) ijodiga mansub.

2. Berilgan ma'lumotiardan foydalanib, "San'at inson qo'li bilan yaratiladi" mavzusida 8-10 ta gapdan iborat matn yozing.

- Yuqoridagi gaplarda qanday san'at durdonalaridan misollar keltirilgan?
- Yuqorida tanishtirilgan san'at durdonalarini yaratish uchun qanday hunar egasi bo'lish kerak?
- Sizningcha, mo'jizakor san'atni yaratish uchun hunar egallashning o'zi yetarlimi?

100-mashq.

Har bir harfdan so'ng harf qo'shib, yangi so'zlar hosil qiling.

O – OL – OLA – OLAM...
O' – O'Q – O'QI – O'QISH...
O' – O'Q – O'QI – O'QIB...

Shu tarzda davom ettiring.

Rasm asosida kichik matn yozish va tahlil qilish

101-mashq. 9-may – Xotira va qadrlash kunini qanday o'tkazishingiz haqida matn yozing.

Xotira muqaddas

(Ibrat)

Odamzod uzoq umri davomida elim deb, yurtim deb barakali mehnat qiladi.

Ba'zilar Vatan uchun jonini fido etadi. Ba'zilar halol ishlab, faxriylar safidan munosib o'rin oladi.

Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun jonini fido etgan ajdodlar yodi minnatdor avlodlar xotirasida abadiy saqlanadi. Vatan ravnaqi, farovon hayot uchun fidokorona mehnat qilgan faxriylar e'zozlanadi, hurmat bilan qadrlanadi.

102-mashq. Quyidagi savollarga yozma javob bering.

Ajdodlar jasorati biz uchun o‘rnakdir!

1. Shahringiz yoki qishlog‘ingizdagi Xotira xiyobonini borib ko‘rganmisiz?
2. Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun qurbon bo‘lganlardan kimlarni bilasiz?
3. Mehnat faxriysi bo‘lgan qarindoshlaringiz bormi?
4. 9-may – Xotira va qadrlash kuni qayerlarda bo‘ldingiz va kimlarni ziyorat qildingiz?

103-mashq. Ushbu rasmdan foydalanib, “Yo‘lchiroq” mavzusida hikoya yozing.



104-mashq. **Rasm asosida reja tuzib, qisqa hikoya yozing.**

Matn ustida ishlash

105-mashq. Matnga mos reja tuzing. Quloqchinni qachon ishlatasiz? Me'yorni bilasizmi? Shular haqida yozing.

Quloqchinlar nimaga kerak?

Aksarimiz quloqchinlarni quloqlarimizga taqqancha musiqa eshitamiz, film tomosha qilamiz, yaqinlarimiz bilan muloqot qilamiz. Ammo bu vaqtda quloqchinlar quloqlarimizga jiddiy zarar yetkazishga ulgurib bo'lar ekan. Ya'ni quloqchinlar quloqlardagi bakteriyalarning 700 barobar tez harakatga kelishiga olib keladi. Aslida bu biz va quloqlarimiz uchun jiddiy zarar.

106-mashq. Hikoyat mazmunidan kelib chiqib, fikringizni izohlang.

Toshbaga va burgut

Toshbaga burgutdan uchishni o'rgatgin, deb so'rabdi. Burgut buni lozim topmabdi. "Bu ishni qo'ygin, senga to'g'ri kelmaydi", desa ham, toshbaqa ko'nmabdi. Burgut uni panjalarida tutib, osmon-u falakka ko'taribdi-yu, qo'yib yuboribdi: toshbaqa yerga tushib, toshlarga urilib, halok bo'libdi.

107-mashq. Rasmdagi narsalarning xazina ekanini izohlab, gaplar tuzing.

Namuna: *Tovuq chindan ham xazina. Uning go'shti ham, tuxumi ham foydali.*

Siz xazina deganda nimani tushunasiz?

Sizningcha, sigir nima uchun xazina deyiladi?

Tovuqni xazina deyishimizga sabab nima?

Asalari nega xazina?

O‘rmon ham xazinami? Nega?

Yil davomida o‘tilganlarni takrorlash

108-mashq. Testlarni yeching va javoblarini yozing.

1. Harakatni bildirgan so‘zlarni toping.

A) o‘qidi, yozdi
B) pushti, oq
D) bog‘bon, duradgor
E) Ra’no, to‘rtinchi

2. Belgini bildirgan so‘zlarni toping.

A) bog‘bon, duradgor
B) Ra’no, to‘rtinchi
D) o‘qidi, yozdi
E) pushti, oq

3. Shaxsni bildirgan so‘zlarni toping.

A) pushti, oq
B) o‘qidi, yozdi
D) Ra’no, to‘rtinchi
E) bog‘bon, duradgor

4. Tartibni bildirgan so‘zlarni toping.

A) birinchi, to‘rtinchi
B) bog‘bon, duradgor
D) pushti, oq
E) o‘qidi, yozdi

5. Maza-ta'mni bildirgan so'zlarni toping.

A) o'qidi, yozdi
B) bog'bon, duradgor
D) shirin, nordon
E) achchiq, to'rtinchi

6. Berilgan gapdagi ikkinchi darajali bo'laklarni belgilang: *Sarg'aygan barglar yerga to'kildi.*

A) sarg'aygan, yerga
B) to'kildi
D) yerga
E) barglar

7. Gapda so'zlarning bog'lanishi qanday aniqlanadi?

A) qo'shimchalarning qo'llanishiga ko'ra
B) so'roqlar yordamida
D) ohangiga ko'ra
E) talaffuziga ko'ra

8. *Mayin shamol yaproqlarni tebratdi.*
Gapdagi "mayin" so'zi qaysi so'zga bog'lanib kelyapti?

A) yaproqlarni
B) tebratdi
D) shamol
E) mayin

9. Asosdosh bo'lmagan so'zni belgilang.

A) bilimli
B) billur
D) bilimsiz
E) bilimdon

10. So'z yasovchi qo'shimchalari bor so'zlarni belgilang.

A) akamning, bekat
B) vatandosh, rejali
D) buvimga, ishsiz
E) ishonch, to'rtinchi

11. Nuqtalar o'rniga berilgan qo'shimchalardan mosini tanlang: *Hozirgi kunda qog'oz... 600 dan ortiq turi bor.*

A) -dan
B) -ni
D) -ning
E) -li

12. So'z qismlaridan qaysi biri ishtirok etmasa, so'z hosil bo'lmaydi?

A) so'z yasovchi qo'shimcha
B) so'z o'zgartiruvchi qo'shimcha
D) asos
E) fe'l

13. So'z yasovchi qo'shimchalar berilgan qatorni toping.

A) -li, -la, -siz, -kor, -dosh;
B) -la, siz, -dosh, -dan, -ga;
D) -chi, -kor, -da, -ning, -siz;
E) -da, -chi, -dosh, -kor, -la:

14. So'z turkumlarini belgilang.

A) ot, sifat, fe'l, o'zak
B) ot, sifat, fe'l, son
D) ot, sifat, fe'l, so'z yasovchi qo'shimcha
E) ot, sifat, fe'l

15. Ikkinchi darajali bo'laklarning so'roqlarini toping.

A) Qanaqa? Qayerga? Nechanchi?
B) Kim? Nima? Kimlar?
D) Nima qildi? Nima qilyapti?
E) Nima qildi? Qayerga?

16. Ikkinchi darajali bo'laklarning gapdagi vazifasini aniqlang.

A) Tugallangan mazmunni bildiradi.
B) Gapning mazmunini to'ldiradi.
D) Uchala javob ham noto'g'ri.
E) So'z yasovchi qo'shimchani bildiradi.

17. Faqat asosdosh bo'lgan so'zlarni belgilang.

A) bilimli, bilimdon, bilimsiz
B) kuchsiz, kuchli, kuchuk
D) moy, moyla, mol
E) g'alla, g'allasiz, g'alaba

Nazorat ishlari uchun topshiriqlar

109-mashq. Nazorat shakli: Diktant.

Erta bahor tongi

Ertalab tinchlik va osoyishtalik hukm suradi. Osmonda bulut ko'rinmaydi. Quyosh nuri dala va bog'larga asta tarqala boshlaydi. Daraxt shoxlarida hali barg yo'q. Ayrim daraxtlarda faqat kurtak ko'zga tashlanadi. Erta bahor tongi yoqimli bo'ladi. U kishiga huzur bag'ishlaydi.

110-mashq. Rasm asosida matn tuzing. Gaplardagi bosh bo'laklarning tagiga chizing.

111-mashq. Ta'limiy diktant.

Qadim zamonda bir hunarmand o'tgan ekan. Uning uchta o'g'li bo'lgan ekan.

Bir kuni usta betob bo'lib qolibdi. Bolalarini oldiga chaqirib, ularga yaxshi odam bo'lishni, xalqqa beminnat xizmat qilishni nasihat qilibdi.

Usta olamdan o'tibdi. Ustaning bolalari meros talashishibdi. Katta o'g'illar mol-dunyoni bo'lishib olishibdi. Kichik o'g'il esa otasining shogirdlari oldiga boribdi. Hunar o'rganibdi. Hunarini ishga solib, xalqqa xizmat qilibdi. Xalq ustaning kichik o'g'lidan minnatdor bo'libdi.

112-mashq. Bayon.

Reja:

1. Muniraning iltimosi.
2.. Muniraning otasiga javobi.
3. Muhiddin otaning xursand bo'lishi.

Munira barvaqt uyg'ondi. U yuz-qo'lini yuvib, bog'ga kirdi. Bog'da Muhiddin ota daraxtlarini parvarish qilayotgan edi. Munira otasidan bir tup pushti atirgul ko'chatini berishini iltimos qildi. Otasi Muniradan ko'chatni nima qilishini so'radi. Munira maktabda ko'chat o'tqazish oyligi boshlanganini aytdi. U ko'p yillik gullardan ekib, maktab hovlisining gulzor bo'lishiga yordam bermoqchi ekan. Buni eshitgan Muhiddin ota xursand bo'ldi. Qiziga turli gul ko'chatlaridan yig'ib berdi. Munira ko'chatlarni olib, sevina-sevina maktabga jo'nadi.

113-mashq. Nazorat shakli: Diktant.

Tozalik

Kishining qandayligi ish joyida bilinadi. Ilg'or ishchilar dastgohlarini doimo toza tutadilar. Yerga turli chiqindilarni tashlamaydilar. Dastgoh yaqinida chiqindi uchun maxsus idish turadi. Hatto latta va supurgi ham bo'ladi.

Ilgakda sochiq turadi. Asboblarning hammasi tartib bilan qo'yiladi. Ular tokchada saqlanadi. Palapartishlik yomon odat. Chunki bu ish unumining pasayishiga sabab bo'ladi. Siz ham darsxonangizni ozoda saqlaysizmi?

Yil davomida o‘tilganlarni takrorlash

114-mashq. Testlarni yeching va javoblarini yozing.

1. Qaysi so‘z ko‘plikda berilgan?

A) oftob
B) o‘qituvchilar
D) bulbul
E) gulchi

2. Sifat belgini bildirgan so‘z qatorini toping.

A) chiroyli, nafis
B) go‘zallik, ikki, besh
D) xushmuomala, tiniq, oq
E) bobo, amma

3. Tartib sonni toping.

A) olti
B) uchta
D) yettinchi
E) bir

4. Qaysi so‘zda ot yasovchi qo‘shimcha bor?

A) qancha
B) beshinchi
D) ishchi
E) guldor

5. Asos deb nimaga aytiladi?

A) barcha yaqin ma'noli so'zlarning umumiy qismi
B) bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan so'zlarning qismi
D) bir-biriga asosdosh so'zlar
E) o'zaro bog'lovchi so'zlar

6. Gapning bosh bo'laklari qaysilar?

A) fe'l
B) ega
D) ikkinchi darajali bo'laklar
E) ega va kesim

7. Asosdosh so'zlar qatorini toping.

A) sirli, mazali, ma'noli
B) do'st, do'stlik, do'stona
D) doktor, shifokor, dutorchi
E) chiroyli, yomon, yaxshi

8. O'rganilgan so'z turkumlari nechta?

A) 4 ta
B) 3 ta
D) 7 ta
E) 5 ta

9. Sifatlar qaysi so'roqqa javob bo'ladi?

10. ***Traktor haydashga qiziqib qoldim.***
Traktor so'zi qaysi so'z turkumiga oid?

11. Shaxs va narsaning harakatini bildirgan so'zlar qanday so'roqqa javob bo'ladi?

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

MUNDARIJA

1-mavzu. 3-chorakda o'tilganlarni takrorlash 6
2-mavzu. Son haqida ma'lumot 9
3-mavzu. Son 11
4-mavzu. Son 13
5-mavzu. Sonlarning turlari 15
6-mavzu. Ijodkorlik soati. Loyiha ishi 18
7-mavzu. Sonlarning imlosi 21
8-mavzu. Sonlarning imlosi 24
9-mavzu. Mustahkamlash 26
10-mavzu. Fe'l haqida ma'lumot 28
11-mavzu. Fe'lning so'roqlari 31
12-mavzu. Yaqin ma'noli fe'llar 34
13-mavzu. Ijodkorlik soati. Loyiha ishi 36
14-mavzu. Gap mazmuniga mos fe'llar topish 38
15-mavzu. Gap mazmuniga mos fe'llar topish 39
16-mavzu. Fe'l ma'nolari ustida ishlash 41
17-mavzu. Fe'l ma'nolari ustida ishlash 43
18-mavzu. Fe'l ma'nolari ustida ishlash 46
19-mavzu. Fe'llarning tallafuzi va imlosi 48
20-mavzu. Ijodkorlik soati. Loyiha ishi 51
21-mavzu. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar 54
22-mavzu. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar 58
23-mavzu. Fe'l yasovchi qo'shimchalar 61
24-mavzu. Fe'l yasovchi qo'shimchalar 64
25-mavzu. Ijodkorlik soati. Loyiha ishi 66
26-mavzu. Rasm asosida kichik matn yozish va tahlil qilish 70
27-mavzu. Matn ustida ishlash 73
28-mavzu. Yil davomida o'tilganlarni takrorlash 76
29-mavzu. Nazorat ishlari uchun topshiriqlar 80
30-mavzu. Yil davomida o'tilganlarni takrorlash 84

Darslik holati haqida ma'lumot

№	O'quvchining F. I. Sh	O'quv yili	Darslik olingan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslik qaytarib berilgan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslikni olish va o'quv yili oxirida uni qaytarishda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi mezonlarga muvofiq to'ldiriladi

Yangi	Darslikning holati a'lo darajada
Yaxshi	Muqovasi butun, kitobning asosiy qismidan uzilmagan. Barcha sahifalar mavjud, butun, yirtilmagan, yelimi ko'chmagan
Qoniqarli	Muqovasi ezilgan, shikastlangan, kitobning asosiy qismidan qisman ajralgan va foydalanuvchi tomonidan tiklangan. Qayta tiklash ishlari qoniqarli. Yirtilgan sahifalar yopishtirilgan, ba'zi sahifalari yirtilgan
Qoniqarsiz	Muqovasiga chizilgan, kitobning asosiy qismidan to'liq yoki qisman yirtilib, uzilgan, qoniqarli tiklangan. Sahifalari yirtilgan, ba'zi sahifalari yo'q, bo'yalgan, ifloslangan, tiklash mumkin emas

Baynazarova Dilnoza Djamaliddinovna
Toirova Muhabbat Ermatovna

Ona tili

3-sinf
IV qism

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

"Novda Edutainment"
Toshkent – 2023

Muharrir	*M. Nishonboyeva*
Badiiy muharrir	*A. Sobitov*
Musahhih	*X. Serobov*
Rassomlar:	*M. Sulaymonova, S. Mamedova, R. Ismailova, T. Daminov*
Kompyuterda sahifalovchi	*Sh. Ahrarova*

Nashriyot litsenziyasi AI №158. 03.08.2023-yilda original-maketdan bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70×100/16. Kegli 14 n/shponli. "Arial" garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Mashinada yengil bo'rlangan (Machine Finished Coated) 80 g/m² qog'oz. Shartli b.t. 5,5. Hisob-nashriyot t. 0,8. Adadi 626 983 nusxa. Buyurtma raqami 23-607. "O'zbekiston" NMIUda chop etildi.